



UDK:811.512

Barno PO'LOTOVA,
Urganch innovatsion universiteti magistranti
E-mail: shixnazarmadiyorov@gmail.com

PhD, D. Niyazmetova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDAGI ANTROPOSENTRIK NUTQ AKTIDAGI FRAZEOLIGIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada antroposentrik nutq aktidagi frazeologizmlar va antroposentrizm g'oyalari haqida mulohaza qilingan, misollar keltirilgan va tarixi haqida qisqacha ta'rif berilgan. Antroposentrik nutq akti frazeologizmlari nutqda ishlatilish holatlari muhokama qilingan, misollar keltirilib maqsadi tushuntirilgan. Shuningdek, maqolada frazeologizmlarning tilni boyitishda, nutq jarayonida aniq maqsadlarni amalga oshirishdagi o'rni ham ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Antroposentrizm, antroposentrik nutq aktidagi frazeologizmlar, ingliz tili, o'zbek tili, nutq akti, nutqiy akt turlari, madaniyat.

SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ANTHROPOCENTRIC SPEECH ACT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article discusses phraseological units used in anthropocentric speech acts and the concept of anthropocentrism, providing examples and a brief historical overview. It analyzes how phraseological units function within speech acts and explains their communicative purposes through examples. The article also highlights the role of phraseological units in enriching language and achieving specific goals in the speech process.

Key words: Anthropocentrism, phraseological units in anthropocentric speech acts, English language, Uzbek language, speech act, types of speech acts, culture.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОМ РЕЧЕВОМ АКТЕ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В статье рассматриваются фразеологизмы, используемые в антропоцентрических речевых актах, а также идеи антропоцентризма. Приводятся примеры и краткое описание их исторического развития. Анализируются случаи употребления фразеологизмов в речевых актах и поясняются их коммуникативные цели. Также освещается роль фразеологических единиц в обогащении языка и достижении определённых целей в речевом процессе.

Ключевые слова: Антропоцентризм, фразеологизмы в антропоцентрическом речевом акте, английский язык, узбекский язык, речевой акт, типы речевых актов, культура.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikning o'ziga xos xususiyati antroposentrizm yo'nalishi bo'lib, koinot markazi va eng oliy maqsadi bu inson haqidagi pozitsiya bo'lib, dunyo manzarasining antroposentrik qurilishi bo'lib, asosiy voqelikni inson ongi tomonidan aks ettirishning o'ziga xos xususiyati, ya'ni bevosita tasavvurdan tashqariga chiqishdir. Antroposentrizm (yunoncha «antropos» - «inson» so'zidan olingan, lot. «sentrum» - «markaz») – bo'lib, uning asosiy o'rganadigan muammosi olam markazida bo'lgan insondir. Antroposentrik yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarda inson va unga tegishli bo'lgan barcha narsalarni bir-biriga chambarchas bog'liq holda o'rganiladi. Bunday tadqiqot ishlarida inson tabiati, evolyutsiyasi, ularning intellektual qobiliyati, dunyoqarashi, va dunyoni anglashi bilan bog'liq holda izlanishlar olib boriladi. Chunki tadqiqot maqsadi insonning ichki dunyosini til orqali yuzaga chiqarishdir. Antroposentrik izlanishlarda V.Gumbolt va L.V.SHerba ishlari ko'proq tilga olinadi. Y.Qoraqulov, N.D. Arityunovalar esa inson omillarining muommolarini tilshunoslikda chuqur o'rganishgan. G.F.Kuznesova va L.A.Mikishinalar antroposentrik izlanishlarni falsafiy aspektda o'rganishgan. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori D.D. Niyazmetova o'zining dissertatsiyasida antroposentrizmga

quyidagicha izoh bergan. “Antroposentrizm tilda ontologik jihatdan aks ettiriladi: birinchidan olam borlig'i talqinida, ikkinchidan uning borliqning muhim baholash ma'nosining tavsifiga asos bo'ladi [1].” Olimlar frazeologizmlar borasida quyidagi fikrga kelishgan ya'ni “so'zlarning turg'un birikmasi obrazli ma'no, ko'chma ma'no anglatishi shart. Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalar frazeologizm (frazeologik birikma) lardir [2].” Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kiriladi.
2. Ma'no yaxlitligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

N.Mahmudovning yozishicha, antroposentrik paradigma tadqiqotchi diqqatining bilish obyektidan subyektiga ko'chishidir, ya'ni bunda inson tilning ichida va til inson tarkibida o'rganiladi. Uning fikricha: “Tilni faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benixoya murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa

yoki milliy, ruhiy zamindan mutlaqo mosuvo bo'lgan sun'iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli tilga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas [6]" Shuning uchun antroposentrik tadqiqotlar tilning ko'p qirrali hodisasi sifatida mohiyatini ochadi, insonlarning moddiy, ma'naviy, madaniy, etnik va etikaviy, estetik tushuncha va tasavvurlari bilan bog'liqligini va tilni mana shunday o'rganishdan olingan quyma xulosalarni ilmiy umumlashtiradi. Antroposentrik tadqiqotlar mazkur tushuncha va tasavvurlar shakllanishida tilning rolini hamda bunda til (nutq) egasi bo'lgan inson faoliyatining ahamiyatini o'rganadi. Frazeologik birikmalardan o'rinni foydalanish nutqning ta'sirchanligini ta'minlaydi. Amerikalik mashhur psixolog A. Maslova nuqtai nazariga ko'ra, inson shaxsiyatining qaror topishi – olam haqidagi bilimlarini o'zlashtirishi va uni ko'rsata oladigan shaxs kamolotining mukammallik tomon intilishidir. Shaxs tadqiqi xalq, elatning milliy-madaniy an'analari, urf-odatlar, yashash tarzi, sharoiti bilan bog'liq mental xususiyatlar negizida ko'rib chiqilishi lozim, chunki insonda milliy madaniyat doirasida shakllanuvchi antropologik prototip (timsol) zarurdir. Tilshunos olim Sh.Safarov nutqiy muloqotda inson omili muhim ekanligini ta'kidlab, «Nutqiy muloqotda inson faktori muhim rol o'ynaydi va bu factor muloqot faoliyatini rejalashtirish, uni voqelanirish, uning strategiyasini amalga oshirish kabi amallarini boshqaruvchi ko'rsatkichlardan biridir [5]» - degan fikrni ta'kidlaydi

Antroposentrik nutqiy aktidagi frazeologizm — bu insonning ichki dunyosi, hissiy holati, jismoniy harakatlari yoki ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan va doimiy shaklga ega bo'lgan barqaror iboralaridir. Bunday frazeologizmlar insonni tilning markaziy obyekti sifatida ko'rsatadi va emotsiyalari, hissiyotlari, aqliy faoliyati, ijtimoiy rol va xulq-atvor komponentlarini til vositasida ifodalaydi. Mazmuni ko'pincha ko'chma, obrazli bo'ladi. S.Mo'minova o'z maqolasida tilshunoslikdagi antroposentrik nutq akti yo'nalish haqida shunday yozadi: "Antroposentrizm tilshunoslikni boshqa ilmiy sohalar va fan sohalar bilan birlashtiradi, chunki antroposentrik yo'nalish tilni inson omili yordamida o'rganishga qaratilgan, yangi yo'nalish hisoblanadi [3]." Shunday ekan, tilning antroposentrik talqinida mental ong, tafakkur, idrok, madaniy munosabatlar muhim o'rinni tutadi. Shunday ekan, frazeologik ma'no asrlar davomida til egasining lisoniy ongi, idrokiga bog'liq ravishda shakllanib, sayqallanib kelgan. Antroposentrik nutq akti frazeologizmlari milliy tilning barcha ijtimoiy funksiyalarini, milliy qadriyatlarini qamrab oluvchi til birliklaridir. Bugungi kunda antroposentrik nutq akti frazeologizmlarni o'rganish tobora kengayib, uni keng xalqqa yetkazish, yangi qirralarini ochish dolzarb masala hisoblanib kelinmoqda. Chunki, frazeologizmlar tilning eng boy qatlami hisoblanadi, va bunday izlanishlar pragmatika bilan uzviy bog'liq holda olib boriladi. Shunday qilib, olamning frazeologik manzarasi-bu inson o'zini haqiqiy borliqning bir qismi sifatida bilishi va butun olamni o'zining tiriklik aksini deb bilishi, va qabul qilishiga aytildi. Inson tildan muloqot maqsadida foydalanar ekan, insonlar o'rtasidagi ma'lumotni yetkazish yoki qabul qilish kabi funksiyalarni bajaradi. Shuningdek, muloqotning kommunikativ faoliyatda nutqiy akt namoyon bo'lar ekan ular subyektlar, lisoniy va nolisoniy vositalar, ehtiyoj, motiv, kommunikativ maqsad, nutqiy strategiya va taktika, o'zaro ta'sirning aloqa jarayonida aks etishi orqali namoyon bo'ladi.

Nutqiy akt - bu muloqot orqali qilinadigan ijtimoiy yoki psixologik harakatdir. Har bir gapiruvchining gapida nafaqat ma'no, balki niyat, hissiyot va ta'sir ham mujassam bo'ladi, va ma'lum bir maqsadda ishlatiladi, va nutqiy akt aynan shunday vazifani bajarish uchun ham zarur hisoblanadi. Nutqiy akt turlariga quyidagilar kiradi: Tasdiq, buyruq,

kontrafakt so'zlashuv, talab, taxmin va rad etish, iltimos, e'tiroz, bashorat, va'da, chaqiriq, mulohaza, tushuntirish, haqorat, xulosa, taxmin, umumlashtirish, javob berish, aldash kabilar kiradi. Nutqiy akt tushunchasi oldingi davrlarda ham mavjud bo'lgan ammo uning to'liq bir nazariya sifatida ingliz mantiqshunosi J.Ostin va amerikalik psixolog J.Searl ishlarida shakllangan. Tilning mavjudligi insonlarning shu tildan foydalanib yozishi yokida gapirishidir. Bu xarakatlarning bajarilishida gap asl ma'nosidan tashqari tasdiqlash, buyurish, ogohlantirish, va'da berish kabi imkoniyatlarni ifodalaydi. Bunday ma'nolar so'zlovchi shaxs tomondan bajarilayotgan nutqiy akt natijasidir. Amsterdam universiteti professori T.Van.Deyk aytganidek [4] "tildan foydalanayotgan shaxslar bir paytni o'zida bir qancha ishini bajaradilar, buning uchun ular nutqiy harakatni rejalashtirishlari, va boshqarib borishlari lozim." Shu sababli, so'zlovchining kognitiv holati, muloqot muhiti va tildan foydalanish aktini o'zaro bog'liq holda biri ikkinchisini inkor qilmaydigan hodisa sifatida qarash demakdir. Nutqiy akt nazariyasi til vositasida amalga oshiriladigan harakatlarni tahlil qiladi. Mashhur britaniyalik tilshunos J.L.Ostin XX asr til falsafasining eng muhim vakillaridan biri hisoblanadi va u nutqiy akt nazariyasining asoschisi hisoblanadi. U nutq orqali bajariladigan harakatlarni uch turga ajratadi, va biz bunday aktlarni frazeologizmlar orqali tahlil qilib chiqamiz:

1. Lokutsion akt (lot. locutio – "nutq") – bu nutqning eng oddiy darajasi bo'lib, faqat ma'lumot berish, xabar yetkazish, yoki biror narsani ifodalashni o'z ichiga oladi. YA'ni, bu aktda gapiruvchi hech qanday maxsus illokutsion (masalan, buyruq, so'rov, va'da) yoki perlokutsion (ta'sir o'tkazish) maqsadni ko'zlamaydi. Bu faqat biror narsani aytish yoki bayon qilishdir.

Misol: "hit the nail on the head" ingliz tilidagi ko'chma ma'noga ega frazeologik birlik (idiom) hisoblanadi. Bu frazeologizm ko'chma ma'noda biror fikrni juda aniq, to'g'ri va lo'nda ifodalashda ishlatiladi. U lokutsion aktiga mansub bo'lib, fikrni aniq va to'g'ri ifodalash birligi sifatida ishlatiladi.

2. Illokutsion akt – bu gapiruvchining maqsadga yo'naltirilgan nutqiy harakatlari bo'lib, ular orqali gapiruvchi nimanidir buyuradi, so'raydi, maslahat beradi, va'da qiladi, ogohlantiradi, iltimos qiladi, va hokazo. YA'ni, illokutsion aktlar orqali gapiruvchi maqsadli niyat bildiradi.

Misol: "Keyep your nose clean" — bu idiomatik frazeologizm bo'lib, ingliz tilida ko'pincha yomon ishlardan uzoq yurishlikni o'zini qonundan tashqarida tutmaslik muammoli ishlardan yiroq yurish kabi ma'nolarda ishlatiladi. Bu frazeologizm illokutsion akti frazeologizmlariga kiradi. Maslahat, ogohlantirish, buyruq kabi nutqiy akt frazeologizmi hisoblanadi.

3. Perlokutsion akt – bu gapiruvchining so'zlari orqali eshituvchiga ta'sir qilish, ya'ni unga biror hissiy, ruhiy yoki jismoniy reaksiya uyg'otishni anglatadi. Masalan, qo'rqish, havotirlanish, xafa qilish yig'latish va boshqalar. Bunday akt turini antroposentrik nutqiy akt frazeologizmlarida quyidagicha ifodalangan.

Misol: "break someone's heart" – frazeologik birlik bo'lib, ingliz tilida bunday frazeologizm kimningdir ko'nglini qattiq xafa qilish, ranjitish kabi ma'nolarda ishlatiladi, va bunday birlik tinglovchining yuragini og'rishini hissiy ta'sir berishini ifodalaydi. O'zbek tilida "yuragini tilka-pora qilmoq" iborasiga mos keladi. Bu ibora shaxsning ko'ngli og'riganligini ifodalaganda ishlatiladi.

"cry over spilled milk" iborasi ingliz tilida o'tib ketgan ishga afsuslanish foydasizligini haqida ogohlantiradi. O'zbek tilida quyidagi frazeologizm mos keladi "o'tgan ishga salovat" bu ibora ham o'tib ketgan vaziyatdan achinmaslikni tushuntiradi.

Antroposentrik nutqiy akt tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin u inson (ya'ni so'zlovchi va eshituvchi) nutqning markaziy subyekti sifatida qaraladi. Bunday nutq aktlarida insonning: shaxsiy tajribasi, hissiyotlari, niyati, ijtimoiy va madaniy holati asosiy o'rinda turadi. Qo'shimcha ravishda, antroposentrik nutqiy aktda gapiruvchining shaxsiy dunyoqarashi, hissiyoti, holati va kontekstga asoslanadi va shaxsga xos kommunikatsion model, emotsional mazmun ham muhim o'rin egallaydi. So'zlovchi doimo real inson: hissiyotli, tajribali va madaniyatli inson sifatida gavdalanitiriladi, chunki antroposentrik frazeologizmlar insonni diqqat markazi sifatida gavdalanitirib turli nutq aktlari vazifasida kelishga undaydi. Bunday bog'lanish kommunikativ va semantic xususiyatini ham yoritishda muhim o'rin egallaydi. Har bir frazeologizm insonning maqsadi, bahosi, emotsiyasi yoki faoliyati ifodalanadi. Mashhur amerikalik faylasuf J.Searl Austinning ishlarini davom qildirib uning illokutsion aktini quyidagi turlarga ajratadi, va uning nutqiy akt nazariyasi antroposentrik frazeologizmlarni tasniflashda asos bo'la oladi. Quyida nutqiy akt turlari J. Searlning klassifikatsiyasi bo'yicha guruhlangan:

A) Assertiv nutq akti. Bunday nutq akti antroposentrik frazeologizmlarda gapiruvchining biror haqiqatga da'vo qilishida ishlatiladi. Ular odatda insonlarning fikri to'g'riligiga da'vo qilganda ishlatiladi: "spill the beans" (Ingliz) yoki "og'zidan chiqib ketishi" (O'zbek) har ikkala ibora ham sirni ochib qo'yish mazmunida ishlatiladi. Niyat qilmasdan, ehtiyotsizlik bilan bexosdan biror gapni aytib yuborish bu ko'pincha noqulay so'z ishlatish bilan ifodalanadi. Bu ibora kundalik turmushda tez tez ishlatiladi.

B) Direktiv nutq akti. Bunday frazeologizmlar odatda gapiruvchi eshituvchiga qandaydir ishini qilishni buyuradi yoki

iltimos qiladi. Direktivlar odatda buyruq, maslahat, iltimos, ogohlantirish, taklif kabi nutq shakllarida bo'ladi. Masalan, ingliz tilida "Bite your tongue" (gapirma), ma'nosida kelsa "Tilingni tiy" (o'zbek) har ikkala tilda ham tanbeh, ogohlantirish ma'nosidagi nutqiy akt ma'nosida ishlatilgan.

Xulosa qilib aytganda ingliz va o'zbek tillardagi antroposentrik frazeologizmlar – inson markazida turgan, uning his-tuyg'ulari, fikrlari, xatti-harakatlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi frazeologik birliklar hisoblanadi. Ular tilimizning emotsional va madaniy qatlamini boyitib, insonning dunyoqarashi va hayot tajribasini ifodalaydigan iboralardir. Antroposentrik frazeologizmlar orqali biz insonning turli holatlari, xarakter xususiyatlari va jamiyatdagi o'rni haqida chuqur tushuncha hosil qilamiz. Shuningdek, ular tilning pragmatik va semantik xususiyatlarini yoritishda ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek va ingliz tillaridagi antroposentrik frazeologizmlarni taqqoslash tilshunoslik, madaniyatshunoslik va pragmatik tahlil sohalarida yangi yo'nalishlarni ochib beradi, hamda tarjima va til o'rganishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Frazeologizmlar nutq aktida qo'llash esa inson ishlatgan ibora qanday maqsad ifoda qilayotganligini aniqlash va shaxs ichki dunyosida iboralar qanday mazmun kasb qilishini tushunishdan iborat. Shunday qilib ingliz va o'zbek tillardagi antroposentrik nutq aktidagi frazeologizmlar tilning turli funksiyada ishlatilishini ochib berishda muhim ahamiyat kasb qiladi. Ular nafaqat so'zlovchining axborotini yetkazadi, balki uning aniq maqsadini ifodalashda ham ishlatiladi. Bunday frazeologizmlar nafaqat tilni boyitadi balki tilni bo'yoqdor qilishda ham ishlatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Niyozmetova D. "Ingliz va o'zbek tillardagi oziq ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyati" Toshkent 2021-22 bet.
2. "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" Toshkent: G'afur G'ulom 2012 - 7 bet
3. Mo'minova S.X. "O'zbek tili frazeologiyasi." Golden Brain, 2(4), 31-33.
4. Dijk T.A V. "Structures of Discourse and Structures of Power" 2008 – 12.
5. Shafarov. Sh "Pragmalingvistika" Toshkent : 2008. 77-78 bet.
6. Mahmudov N. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. Toshkent: 2006
7. Mahmudov N. "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab" O'zbek tili va adabiyoti –Toshkent 2012yil